

KUTTIBEKOVA GULJAN TULEPBAYEVNA

TEXNOLOGIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI



74.262.21
K96

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası


KUTTIBEKOVA GULJAN TULEPBAYEVNA

TEXNOLOGIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI

Uslubiy qollanma



**Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2022**



UDK: 517.1
BBK: 22.143
A 54

Kuttibekova Guljan Tulepbayevna

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Uslubiy qollanma. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 84 b.

Ushbu uslubiy qo'llanmada boshlang'ch sinflar texnologiyasi fanining asosiy mavzularini o'z tarkibiga olgan uslubiy topshiriqlar berilgan. Bu topshiriqlarni bajarish talabalarga boshlang'ch sinflar texnologiyasining maqsadi, mazmuni va tuzilishini o'zlashtirishlariga yordam beradi, shu bilan birga talabalarni o'qitishning turli uslub, vosita shakllarning qo'llanishiga qaratilgan zaruriy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Mazkur uslubiy qo'llanmada oliy o'quv yurtlarining 5111700 – "Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan.

Taqrizchilar:

Xolboyeva G.A – A.Qodiriy nomidagi JDPI "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini mudiri

Umarova Z.A – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, boshlang'ich ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi

Jizzax Davlat Pedagogika instituti tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7324-7-6

© Kuttibekova G., 2022.
© "Innovatsiya-Ziyo", 2022.

KIRISH

Mustaqillikka erishilgandan so'ng umumta'lim maktablar oldiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmuni fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga: ta'lim tarbiya jarayonida texnologiya ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalash uchun ota-onalarining, o'qituvchilarining ma'suliyatini oshirishga ajratilgan. Bu o'z navbatda texnologiya ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan texnologiya o'qituvchisi shaxsini har tomonlama rivojlanishi uchun to'liq imkoniyatini beradi. Texnologiya ta'limi mutaxassis tayyorlashni o'z maqsadi qilib qo'ymaydi, balki u o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun vositasi hisoblanadi. Maktabdagi texnologiya ta'limi tarbiyasi va ma'lumoti, maktabdan mehnat asosini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib, u bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati o'z-o'ziga xizmat qilishi, o'zaro yordam ko'rsatish, estetika va jismoniy rivojlanish jarayonidagi mehnat, kuch, g'ayratlarini qamrab oladi. Texnologiya ta'limining tarbiyaviy ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilarda mehnatsevarlik, ma'suliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqli o'sishida eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biridir.

Mazkur metodik qullanmada nazariy, amaliy mashg'ulotlarning mavzusi, unga tayyorlanish jarayonida talaba bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va eng muhim nazariy va amaliy manbalar keltirilgan bo'lib undan 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani mashg'ulotlarida hamda mustaqil ishlarini bajarishlarida foydalanishlari mumkin.

1 BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TENOLOGIYA TA'LIMIDAN NAZARIY BILIMLAR

1.1. Texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani pedagogik fanlardan biri bo'lib, fanining asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beradi. O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash va ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malaka va ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlaydi, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga tayyorlaydi. Texnologiya ta'limida mehnatga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari asosida tarbiyalaydi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanashida yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Shu bilan bir qatorda bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetentsiyalarini shakllantiradi.

Texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsadi – talabalarni boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Texnologiya ta'limi va tarbiyasining vazifalari – Boshlang'ich maktablarda texnologiya ta'limi va tarbiyasining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'qitish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish.

Texnologiya ta'limi orqali o'quvchilarni mehnatga va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich sinflarda butun ta'lim va tarbiya tizimida hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda texnologiya darslari yetakchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining ilk tushunchalari, malaka va ko'nikmalari texnologiya darslarida shakllantiriladi.